<i>N. Sh. Abdullayeva, F. R.Valiyeva, S. S. Raximova</i>	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari .....	667
<i>O. A. Shodiyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
<i>Y. R. Azzamov</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari .....	676
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	679
<i>Teshayeva Dilnoza Chori qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
<i>Yuldasheva Dilshoda To'lqinovna</i>	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования .....	688
<i>Анварова Хуснора, Isoxоnova Aziza</i>	
Толерантность в мультикультурном обществе .....	692
<i>Бекбосынова З. К.</i>	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности .....	696
<i>Исмаилова Мадинабону</i>	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений .....	701
<i>Хамидова Нигора Тулкуновна</i>	
Raqamli ta'lim muhiti va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta'siri .....	704
<i>Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish .....	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi .....	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	



O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari.....	714
<i>Aslanova Malohat Akramovna</i>	
Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida.....	718
<i>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish .....	721
<i>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</i>	
Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati .....	725
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi.....	728
<i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari .....	733
<i>O'tahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context.....	736
<i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni .	749
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari .....	752
<i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>	
Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar .....	757
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati .....	762
<i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari.....	766
<i>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</i>	
Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) .....	770
<i>Багирова Паринисо Бобировна</i>	
Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar.....	775
<i>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</i>	
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili .....	780
<i>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</i>	
Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari .....	784
<i>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</i>	
Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish.....	789
<i>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</i>	
Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri...	793
<i>M. B. Pulatova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili .....	796
<i>Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari.....	801
<i>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</i>	



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli .....	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari .....	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies .....	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish .....	818
<i>Eshquvvatov To'liqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish .....	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari .....	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish .....	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish .....	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar ....	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi .....	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari .....	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods .....	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari .....	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari .....	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari ....	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish .....	896
<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish .....	903
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari .....	907
<i>Tolipova Shohista Qudrat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli .....	911
<i>Turg'unova Gulzoda Botir qizi</i>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari .....	916
<i>Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</i>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari .....	919
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari .....	923
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi .....	927
<i>Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	931
<i>Bilolov Inomjon O'ktamovich</i>	
Karatening kelib chiqish tarixi .....	934
<i>Isayev Saidaliddinxon Islom o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar .....	937
<i>Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi</i>	
Родительские установки и развитие личности .....	941
<i>Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi .....	945
<i>Yusupova Umida</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari .....	950
<i>Kadirova Omaxon Sobirjonovna</i>	
Maktab ta'limi tizimida raqamli boshqaruv modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish .....	954
<i>Raxmatova Xurshida G'ofurovna, Tangirov Xurram Ergashevich</i>	
Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде .....	961
<i>Камолдинова Диёра Жалолиддин қизи</i>	
Boshlang'ich maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari .....	968
<i>Fayzidinova Maxsuda Akmalovna</i>	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish: milliy va xalqaro pedagogik yondashuvlar .....	971
<i>N. R. Dushayeva</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarning individual profili asosida moslashtirilgan didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish .....	975
<i>Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalari .....	980
<i>Rabbimova Munisxon Mustafoyevna</i>	
O'qitishda san'at vositalaridan foydalanish genezisi va zamonaviy tajribalari .....	983
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
Sun'iy intellekt muhitida ta'lim olish jarayonida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash .....	989
<i>Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	993
<a href="#">Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, R. Rayimova</a>	
The Influence of Digitalization on Written Communication.....	998
<a href="#">Yusupova Sitora Ashuraliyevna</a>	



# SUN'IY INTELEKT MUHITIDA TA'LIM OLIH JARAYONIDA TALABALARNING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATI VA KOGNITIV YUKLAMASINI BAHOLASH

Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti  
pedagogika yo'nalishi 2-bosqich magistranti

ORCID: 0009-0003-8873-9992

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sun'iy intellektga asoslangan ta'lim muhitida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda adaptiv o'qitish tizimlarining talaba diqqati, xotirasi va hissiy holatiga ta'siri tahlil qilinadi. Kognitiv yuklamani o'lchashning zamonaviy usullari va ularni optimallashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, kognitiv yuklama, psixofiziologiya, adaptiv ta'lim, eye-tracking, EEG, kognitiv resurslar.

**Abstract:** This article examines the assessment of students' psychophysiological state and cognitive load in an AI-based learning environment. The research analyzes the impact of adaptive learning systems on students' attention, memory, and emotional state. Modern methods for measuring cognitive load and suggestions for its optimization are provided.

**Key words:** artificial intelligence, cognitive load, psychophysiology, adaptive learning, eye-tracking, EEG, cognitive resources.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы оценки психофизиологического состояния и когнитивной нагрузки студентов в образовательной среде на базе искусственного интеллекта. В исследовании анализируется влияние адаптивных систем обучения на внимание, память и эмоциональное состояние студентов. Приведены современные методы измерения когнитивной нагрузки и предложения по её оптимизации.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, когнитивная нагрузка, психофизиология, адаптивное обучение, айтрекинг, ЭЭГ, когнитивные ресурсы, образовательные технологии.

## KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim transformatsiyasi nafaqat raqamli resurslardan foydalanish, balki o'quv jarayoniga Sun'iy intellekt (SI) tizimlarining chuqur integratsiyalashuvi bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda SI nafaqat axborot yetkazib beruvchi, balki talabaning kognitiv sherigiga (cognitive partner) aylanmoqda. Biroq ushbu texnologik yutuqlar talabaning psixofiziologik salomatligi va kognitiv imkoniyatlari bilan qanchalik mutanosib ekanligi ilmiy hamjamiyatda keng bahslarga sabab bo'lmoqda.

Kognitiv yuklama (Cognitive Load) tushunchasi talabaning ishchi xotirasi tomonidan ma'lum bir vaqt birligida qayta ishlanadigan axborot miqdorini anglatadi. SI muhitida bu yuklama dinamik xarakterga ega. Bir tomondan, SI talabaning bilim darajasiga moslashib, "yaqin rivojlanish zonasi"ni optimallashtiradi, ikkinchi tomondan esa doimiy interaktivlik va ekran bilan muloqot talabaning neyrofiziologik tizimida zo'riqishlarni keltirib chiqaradi<sup>[1, b. 12]</sup>. Psixofiziologik holatni baholash – bu shunchaki talabaning charchaganini aniqlash emas, balki uning aqliy faoliyati davomida organizmida yuz beradigan sub'ektiv va ob'ektiv o'zgarishlarni (yurak ritmi, diqqat konsentratsiyasi, miya to'liqlari faolligi) tahlil qilishdir.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, SI asosidagi ta'lim platformalari talabaning nafaqat akademik natijalarini, balki uning kognitiv farovonligini (cognitive well-being) ham hisobga olishi zarur. Tadqiqotning ob'ekti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalari olingan bo'lib, ularning SI muhitidagi (masalan, adaptiv o'quv platformalari va neyrotarmoqlar bilan ishlash jarayonidagi) psixofiziologik reaksiyalari o'rganiladi. Maqolaning maqsadi – kognitiv yuklamani monitoring qilish orqali ta'lim jarayonini inson markazli (human-centered AI) tamoyillar asosida optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqishdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kognitiv yuklama nazariyasi (Cognitive Load Theory - CLT) 1980-yillarda Jon Sveller tomonidan asoslangan bo'lib, u ta'lim dizaynini insonning kognitiv arxitekturasiga moslashtirishni ilgari suradi [3, b. 40]. Sveller nazariyasiga ko'ra, ishchi xotira cheklangan resurs bo'lib, agar o'quv material haddan tashqari murakkab bo'lsa (ichki yuklama) yoki uning taqdim etilish shakli noqulay bo'lsa (tashqi yuklama), o'rganish jarayoni to'xtaydi.

R. Mayer o'zining multimedia asosida o'qitish nazariyasida SI muhitidagi vizual va auditorial kanallarning bir vaqtda yuklanishi talabada "kognitiv ortiqcha yuklanish" (cognitive overload) keltirib chiqarishini isbotlagan [7, b. 156]. Uning fikricha, SI tizimlari ma'lumotni taqdim etishda talabning sensor tizimlari o'rtasidagi muvozanatni saqlashi shart. So'nggi yillarda "Neyropedagogika" sohasidagi tadqiqotlar (M. Posner, S. Dehaene) diqqatni boshqarish mexanizmlarini SI algoritmlari bilan qiyoslamogda. Xususan, neyron tarmoqlar talabning diqqati pasayganini uning ko'z harakatlari (eye-tracking) yoki klaviaturada yozish tezligi orqali aniqlashi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan [5, b. 89].

Mahalliy va MDH davlatlari olimlari, jumladan, psixofiziologiya sohasida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, raqamli muhitda "axborot hujumlari" va "media immuniteti" masalalariga urg'u berishmogda. Ular ta'kidlashicha, talabning SI bilan muloqoti nafaqat intellektual, balki emotsional chidamlilikni ham talab qiladi [4, b. 58].

Talabning ma'lumotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati susayishi uning kognitiv yuklamasini sun'iy ravishda pasaytiradi, bu esa "kognitiv dangasalik" (cognitive laziness) fenomeniga olib kelishi mumkin [2, b. 115].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Andijon davlat pedagogika instituti (ADPI) talabalari bazasida o'tkazildi. Eksperimentda jami 60 nafar talaba ishtirok etdi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi komponentlardan tashkil topdi:

- **psixofiziologik monitoring** – Tobii Pro Nano (eye-tracking) va Emotiv EPOC X (EEG) qurilmalari yordamida talabalarning diqqati va miya faolligi qayd etildi;
- **sub'ektiv baholash** – NASA-TLX (Task Load Index) so'rovnomasi orqali talabalarning aqliy talab, vaqt bosimi va harakat darajasi baholandi;
- **apparatli vositalar** – Acer Nitro V15 rusumli, Windows 10 operatsion tizimidagi kompyuterlar yordamida SI-tutorlar (ChatGPT-4 asosidagi) bilan ishlash jarayoni tashkil etildi;
- **statistik tahlil** – ma'lumotlar SPSS va Python (SciPy kutubxonasi) yordamida dispersion tahlil (ANOVA) va Student t-testi orqali qayta ishlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalarining tahlili va ularning ilmiy muhokamasi maqolaning eng salmoqli qismi bo'lib, u Sun'iy intellekt (SI) muhitidagi kognitiv jarayonlarning nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlarini ham ochib beradi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, SI bilan muloqot jarayonida talabalarning psixofiziologik holati an'anaviy ta'lim shakllaridan tubdan farq qiladigan dinamikaga ega. Eksperiment guruhidagi talabalar topshiriqlarni bajarish davomida yuqori darajadagi sub'ektiv muvaffaqiyat hissini tuygan bo'lsalar-da (82 ball), ularning neyrofiziologik ko'rsatkichlari kognitiv resurslarning o'ta jadal sarflanayotganini tasdiqladi.

Xususan, EEG ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, SI-tutor bilan ishlashning dastlabki 15-20 daqiqasida miya yarim sharlarining frontal qismida beta-to'lqinlar faolligi barqaror yuqori bo'lib turadi, bu esa diqqatning maksimal konsentratsiyasi va axborotni faol qayta ishlash jarayonidan dalolat beradi [5, b. 90]. Biroq ushbu yuqori faollik fazasi an'anaviy guruhdagiga qaraganda 25% tezroq yakunlanadi va teta-to'lqinlar amplitudasining ortishi bilan almashadi, bu esa kognitiv charchoqning erta boshlanishini ko'rsatuvchi ob'ektiv indikatoridir.

Eye-tracking (ko'zni kuzatish) tahlillari ushbu holatni yanada chuqurroq yoritib berdi. SI muhitida talabalarning ko'z fiksatsiyalari (ma'lum bir nuqtada nigohning to'xtashi) davomiyligi o'rtacha 210-240 ms ni tashkil etdi, bu esa nazorat guruhidagi (280-310 ms) ko'rsatkichdan sezilarli darajada qisqadir. Bu holat talabalarning SI tomonidan taqdim etilgan tayyor yoki yarim tayyor ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish o'rniga ularni yuzaki "skanerlash" (skimming) strategiyasiga o'tayotganini anglatadi. Bunday kognitiv xulq-atvor tashqi yuklamani kamaytirsa-da, uzoq muddatli xotiraga ma'lumotni muhrlash (germane load) jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [3, b. 42].

Shuningdek, sakkadalar (ko'zning tezkor sakrashlari) chastotasining ortishi talabning interfeysdagi ko'plab interaktiv elementlar (chat darchasi, takliflar, havolalar) o'rtasida diqqatini taqsimlashga urinayotganini, bu esa "kognitiv sochilish" (cognitive fragmentation) fenomenini keltirib chiqarayotganini tasdiqlaydi. Muhokama



jarayonida aniqlangan eng muhim jihatlardan biri – “Expertise Reversal Effect” yoki tajriba teskari effektidir. SI tizimi talabaga haddan tashqari ko'p ko'rsatmalar va tayyor strukturalarni taqdim etganda, yuqori tayyorgarlik darajasiga ega talabalarda kognitiv yuklama kamayish o'rniga ortib ketishi kuzatildi. Buning sababi shundaki, talaba o'zining mavjud mental modellari va SI taklif qilayotgan yangi modellar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish uchun qo'shimcha aqliy energiya sarflashga majbur bo'ladi [9, b. 105].

Aksincha, past tayyorgarlik darajasiga ega talabalar uchun SI muhiti “kognitiv tayanch” (scaffolding) vazifasini o'tab, ulardagi frustratsiya va vaqt bosimi hissini sezilarli darajada kamaytirdi. Bu esa SI algoritmlarini ishlab chiqishda nafaqat kontentni, balki talabaning individual psixofiziologik profilini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, talabalarning emotsional holati va kognitiv yuklama o'rtasidagi korrelyatsiya tahlil qilindagina, SI muhitidagi “interaktivlik illuziyasi” aniqlandi. Talabalar o'zlarini juda samarali ishlayotgandek his qilsalar-da (sub'ektiv baho), nazorat testlari natijalari tahliliy va tanqidiy fikrlashni talab qiladigan topshiriqlarda SI guruhining natijalari kutilganidan pastroq bo'lganini ko'rsatdi. Bu holat talabalarning SI ga bo'lgan “kognitiv qaramligi” (cognitive offloading) bilan izohlanadi, ya'ni miya qiyin aqliy operatsiyalarni tashqi algoritimga topshirishga moyillik ko'rsatadi [4, b. 62].

Binobarin, SI muhitida ta'lim olish jarayonida kognitiv yuklamani optimallashtirish uchun tizim nafaqat javob berishi, balki talabani mustaqil fikrlashga undaydigan “qiyinchilik nuqtalari”ni (desirable difficulties) saqlab qolishi metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari SI-ta'lim texnologiyalarini joriy etishda neyropedagogik yondashuvning ustuvorligini va talaba salomatligini saqlash uchun kognitiv gigiyena qoidalariga rioya qilish shartligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

## XULOSA

Olib borilgan tadqiqot va psixofiziologik o'lchovlar natijasida Sun'iy intellekt (SI) muhitida ta'lim olish jarayoni an'anaviy raqamli ta'limdan kognitiv dinamikasi bilan tubdan farq qilishi aniqlandi. Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, SI tizimlari o'quv materialini individuallashtirish orqali talabaning sub'ektiv muvaffaqiyat hissini (self-efficacy) oshirsa-da, bu jarayon organizmning neyrofiziologik resurslarini jadal sarflash evaziga sodir bo'ladi. Xususan, EEG va eye-tracking ma'lumotlari SI muhitida diqqatning yuqori konsentrat-siyasi (beta-to'lqinlar faolligi) qisqa muddatli ekanligini va 40-45 daqiqadan so'ng kognitiv charchoqning (teta-to'lqinlar ustunligi) keskin boshlanishini ko'rsatdi [5, b. 95].

Ma'lum bo'ldiki, talabalar SI tomonidan beriladigan tezkor javoblarga o'rganib qolishi natijasida “kognitiv yuklamani tashqariga yo'naltirish” (cognitive offloading) fenomeni yuzaga keladi. Bu esa talabaning mustaqil tahlil qilish va axborotni chuqur qayta ishlash qobiliyatini susaytirib, yuzaki skanerlash strategiyasiga o'tishiga sabab bo'ladi. Mazkur holat uzoq muddatli istiqbolda talabalarning fundamental bilim darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan kognitiv xavf sifatida baholanadi [4, b. 65].

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim muassasalari va SI dasturlarini ishlab chiquvchilar uchun quyidagi amaliy tavsiyalar shakllantirildi:

- neyro-adaptiv tanaffuslar – SI asosidagi o'quv platformalarida “kognitiv gigiyena” qoidalarini joriy etish, ya'ni talabaning ishchi xotirasi zo'riqishini kamaytirish uchun har 25-30 daqiqada majburiy intellektual tanaffuslar yoki kognitiv yuklamani pasaytiruvchi (dam beruvchi) topshiriqlarni kiritish zarur;
- dinamik qiyinchilik darajasi – SI algoritmlari nafaqat talabaning to'g'ri javoblariga, balki uning psixofiziologik holatiga (masalan, javob berish tezligi, tahrirlar soni) qarab topshiriq murakkabligini avtomatik pasaytirishi yoki oshirishi lozim;
- kognitiv mustaqillikni saqlash – SI tizimi talabaga tayyor javobni emas, balki javobga olib boruvchi mantiqiy qadamlarni taqdim etishi, bu orqali “kerakli qiyinchiliklar” (desirable difficulties) tamoyilini saqlab qolishi metodik jihatdan shartdir [9, b. 108];
- psixofiziologik monitoring – kelajakda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning dars jarayonidagi holatini masofaviy (kontakt-free) monitoring qiluvchi tizimlarni joriy etish, bu orqali “texnostress” va emotsional charchoqning oldini olish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, Sun'iy intellekt ta'limda faqatgina texnologik vosita emas, balki inson kognitiv arxitekturasi ta'sir etuvchi kuchli omildir. Shuning uchun SI muhitida o'qitish metodikasini ishlab chiqishda neyropedagogik qonuniyatlarni hisobga olish, talabalarning “moral va media immuniteti”ni shakllantirish barqaror ta'limning asosi bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (2021-yil). Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-4996-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5297046>
2. Anderson, J. R. (2023-yil). *Cognitive Psychology and Its Implications* (10th ed.). Worth Publishers.
3. Baker, R. S., & Rossi, L. M. (2024-yil). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Perils for Higher Education*. Routledge. <https://doi.org/10.1016/j.aiedu.2024.100234>
4. Sweller, J., Ayres, P., & Kalyuga, S. (2011-yil). *Cognitive Load Theory (Explorations in the Learning Sciences, Instructional Systems and Performance Technologies)*. Springer Science & Business Media.
5. Toshmatov, N. X. (2025-yil). *Raqamli ta'lim muhitida talabalarning psixofiziologik moslashuvi: Monografiya*. Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Wang, Y., & Miller, G. (2023-yil). Real-time monitoring of cognitive load using EEG and eye-tracking in AI-assisted learning environments. *Journal of Educational Technology & Society*, 26(3), 85-102.
7. Zimmerman, B. J. (2022-yil). Self-regulated learning and the role of artificial intelligence in personalizing education. *Educational Psychologist*, 57(4), 199-215.
8. Mayer, R. E. (2021-yil). *Multimedia Learning* (3rd ed.). Cambridge University Press.
9. Luckin, R. (2018-yil). *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century*. UCL Press.
10. Kalyuga, S. (2023-yil). Expertise Reversal Effect and Its Implications for AI-based Instructional Design. *Educational Review Publications*.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.